

AN'ANAVIY CHOLG'ULARNING QAYTA MODIFIKATSIYALASHUVI

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Tosheva Durdona

Ilmiy rahbar Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasи dotsenti

Olimxo'ja Karimov

Annotatsiya Ushbu maqolada an'anaviy cholg'u ijrochiligining yillar davomida modifikatsiyalashuvi va taraqqiyoti xususida, XX asrning boshlarida A.Petrosyans tomonidan cholg'u asboblarini takomillashtirga kirishgani, Usta Usmon Zufarov dutor cholg'usini takomillashtirib ijro imkoniyatlarini kengaytirgani to'g'risida so'z boradi.

Аннотация В данной статье рассказывается о модификации и развитии традиционных музыкальных инструментов на протяжении многих лет, о начале 20 века, когда А. Петросян начал совершенствовать музыкальные инструменты, а Уста Усман Зуфаров расширил возможности исполнительства за счет совершенствования дутарного инструмента.

Annotation This article talks about the modification and development of traditional musical instruments over the years, about the beginning of the 20th century, when A. Petrosyan began to improve musical instruments, and Usta Usman Zufarov expanded the possibilities of performance by improving the dutar instrument.

Kalit so'zlar: Modifikasiya, rekonstruksiya, modernizatsiya, parda, o'lchov, usul, cholg'u, orkestr, partitura, dutor, g'ijjak.

Modifikasiya eng qadimgi lotincha so'z bo'lib, unga "Поэтический словарь Квятковского" kitobida shunday ma'no berilgan: "Modifikasiya - (qadim lat. modifikatio – qaror topgan mezon-o'lchovlar, latincha modus – mezon, ko'rinish, obraz, ko'chma xususiyat va lat. fasio – qilmoq, amalga oshirmoq), qayta barpo qilish, nimaningdir yangi xususiyat kasb etish bilan shakl o'zgartirilishi (Poeticheskiy slovar Kvyatkovskogo, 2006:

197). Ko‘rinib turibdiki, modifikasiya tushunchasining asosida faylasuf Spinozaning mashhur substansiya va modus haqidagi umumfalsafiy qarashlari yotadi. “Falsafiy lug‘at”da ko‘rsatilishicha: “Modus – o‘lchov, mezon, usul, yo‘l, tariqa, tarz degan ma’nolarni bildirib keladi. Predmetning muayyan holatlardagi xususiyatini ifodalaydi. Atribut (o‘ziga xoslik)dan shu jihatni bilan farq qiladi. Spinozaga ko‘ra, modus substansiyaning barcha o‘tkinchi (ko‘chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uning borligi o‘ziga emas, substansiya va uning xossasiga bog‘liq bo‘ladi. Modusda, o‘zining paydo bo‘lishini yagona, abadiy, chegarasiz moddiy subtansiyada topadigan narsalarning abadiy ko‘payuvchanligi va ko‘chuvchanlik sifati aks etadi” O‘zbek xalq cholg‘u asboblarini, xususan tanburni takomillashtirish bilan XX asming 30- yillarda Rossiya cholg‘u asboblari ustalari (T. F. Podgorniy, Y. F. Vitachek), shuningdek Marklenkirxen (Germaniya) ustaxonalarida shug‘ullanishdi. O‘zbekiston musiqa san’atining ko‘zga ko‘ringan musiqashunoslaridan biri N. N. Mironov aytganlariga qaraganda, 30- yillarda usta T. F. Podgorniy tomonidan «tanbur o‘rniga turk cholg‘u asbobi udga juda o‘xshash bo‘lgan udsimon mandolina yasaldi. Uning sadosi qattiq bo‘lsada, o‘zbek tanburi sadosiga aslo o‘xshamasdi. Germaniyada esa tanbur o‘rniga italyancha mandolina yasaldi»¹. «Rekonstruksiyalash g‘oyasi o‘zbek sozandalari va ustalari fikri-zikrini ko‘pdan buyon band qilib kelardi, lekin ularning urinishlari epizodik, parokanda va tizimsiz edi. Bunday urinishlar, odatda, ratsional akustik, badiiy va ijrochilik asosidan mahrum bo‘lgan «xayoliy» xususiyatga ega bo‘lib, ko‘pincha sozning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish bilangina yakun topardi»². B. A. Struve o‘z asarida usta Usmon Zufarovning an’naviy o‘zbek dutorini takomillashtirish ishini ajratib ko‘rsatib, bu ish dutorning sadosini kuchaytirish hamda uni bezak sifatini yaxshilashdan iborat bo‘lganligini ta’kidlaydil. Ikki asos ushbu sohadagi dastlabki ilmiy izlanish ekanligini qayd etish lozim. XX asrning 20-30- yillardayoq o‘zbek xalq ustalaridan Usmon Zufarov, Matyusuf

¹ Qarang: A. K. Назаров. Итоги работы над реконструкцией узбекского типового дутара периода 1935—1954 гг. (Qo‘lyozma tajriba laboratoriyasidan o‘rin olgan). Tashkent, 1956. С. 14.

² Б. А. Струве. Реконструкция узбекских музыкальных инструментов. — «Пути развития узбекской музыки» китобида. Гос. изд. «Искусство», Л. — М., 1946. С. 176. ^ 0 ‘sha joyda. — 184-bet.

Xarratov, Shorahim Shoumarov va boshqalar xalq cholg‘u asboblarini takomillashtirish yo‘lida dastlabki ishlarni qildilar. Ular sado kuchini oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi bezakni ko‘rkamlashtirishga intildilar. Sadoni kuchaytirish o‘sha davr sozlarini takomillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bo‘lgan. Bu fikmi muzeyda saqlanib qolgan cholg‘u asboblari nusxalari tasdiqlaydil Sadoni takomillashtirish uchun turli usullar sinab ko‘rildi — sozning korpusi shakli o‘zgartirildi, dutor, tanburning ichki qismi ikki yoniga qo‘sishma rezonatsiyaga mo‘ljallangan torlar tortildi, biroq parda bog‘lamlari, tovush qurilishi va tovushqator o‘zgarishsiz qoldi.

1930-yillarning o‘rtalarida A.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh musiqa ustalari (V.Romanchenko, A.Kevxoyans, S.Didenko) V.Andreyev ish tajribasiga tayangan holda (torli-chertma) cholg‘ularni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida ijrochilikning zamonaviy talab darajasiga moslashtirishga, ya’ni modernizatsiyalashtirishga kirishdilar. Modernizatsiyalashtirishdan asosiy maqsad: ko‘p ovozli ansambl va orkestr jamoalarini tuzishdan iborat edi. Shu paytning o‘zida A.Petrosyansda cholg‘ularning oilasini yaratish fikri paydo bo‘ldi. Natijada nota orqali ijro etadigan orkestrning shakllanishiga asos solindi.

1940-yillarning boshlarida laboratoriyaning musiqiy ustaxonasida ustakonstrukturlar A.Petrosyans va S.Didenko, soz ustalari V.Romanchenko va A.Kevxoyanslar ishlar edilar. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida ularning tarkibiga X.Muxitdinov, A.Abdug‘ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev va F.Bortniklar kelib qo‘sildilar.

Ular torli-chertma cholg‘ularning tovushqatorlariga 12 bosqichli teng temperatsiyalashgan xromatik tovushqatorlarni joriy etish, cholg‘ularning oilalarini yaratish, torli kvintet, ya’ni torli-kamonli cholg‘ular, xromatik chang ustida ilk tajribalar o‘tkazadilar. Bularning hammasini A.Petrosyans bir guruh milliy ustalarimiz bilan birgalikda o‘zbek xalq musiqa cholg‘ularida ijrochilik ta’limini maq’bul nota sistemasiga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yish maqsadida amalga oshiradi.

G‘ijjaklarni takomillashtirishda asosan ularning dastalariga e’tibor qaratilgan.

An'anaviy g'ijjaklarda dasta yumaloq shaklda bo'lib, yuqori qismi qalin, pastki qismi ingichka qilib ishlangan. Chunki ularda asosan o'zbek xalq kuylari va maqomlardan parchalar ijro etilgan. Tez sur'atdagi asarlar ijro etilmagan. Modernizatsiyalashtirilgan g'ijjaklarda esa o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda O'zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari va jahon klassik durdonalari ham ijro etilgan. Shuning uchun ham dastaning yuqori qismi ingichka pastki qismi qalin hamda dastasining barmoq bosib ijro etiladigan qismi yassi qilib ishlangan. Zero, bunday holat texnik asarlarni ijro etishga qo'l keladi. Boshqacha qilib aytganda g'ijjaklar modernizatsiyalashtirilgandan so'ng ularning ijrochilik imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, g'ijjak kamoni skripka kamoni bilan almashtirildi hamda uning ushslash holati g'ijjak ijrochiligi amaliyotga keng joriy etildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Rahimov Sh. Lutfullayev A. Cholg'ushunoslik, "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2010. 5 b.
2. A. Liviyev. O'zbek milliy cholq'usozlik tarixi. "Bilim". T., - 2005y. – 159 b
3. Sh. Rahimov, A. Lutfullayev. Cholg'ulashtirish. "Musiqa". T.,- 2010y. – 120 b.
4. Ergashev G'. Afg'on rubobi darsligi. T., 2004.
5. Dadamuxamedov A. Rubob prima darsligi. T., 2004.
6. Muhammedova G. Dutor darsligi. T., 2003
7. Nurmatov X. Qashqar rubobi. T., 2003.
8. Turopov Z. Dutor bas. T., 2004.
9. Toirov M, Petrosyans A. Nay. T., 2002.
10. Ashrafxo'jaev T. Doira darsligi T.,2003.
11. Odilov A,Lutfullaev A. Chang, T.,2002
12. Yu.Rajabi. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
13. A. Jabborov. O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004
14. A.Jabborov.T.Solomonova. Kompozitorы muzыkovedы
15. Uzbekistana.Toshkent.1975

16. Петросянц А. Инструментоведение (узбекские народные инструменты). Ташкент. 1980, 1990
17. Берлиоз Г. О современной инструментовке и оркестровке. I—II т. М., 1972.
18. Вызго Т. Виктор Александрович Успенский (1879-1949). – Ташкент: Государственное издательство Узбекистан, 1950. – 32 с.
19. Гул'ёри-Шаҳноз / Ш.Шоумаров ижросида В.А. Успенский ёзиб олган. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1956. – 52 б.
20. Кароматов Ф.М. К истории записи узбекского фольклора // Вопросы музыкальной культуры Узбекистана: Сб. статей. Вып. II. / Сост. и науч. ред.: И.Н. Карелова. – Ташкент: Изд. худ. лит-ры им. Г. Гуляма, 1969. – С. 3-46.
21. Пеккер Я. Виктор Александрович Успенский. – Ташкент: Гос. изд-во худ. лит-ры УзССР, 1959. – 232 с.
22. Успенский В.А. Статьи, воспоминания, письма / Сост.: И.А. Акбаров. – Т.: Изд. лит. и искусства, 1980. – 384 с.
23. Успенский В.А., Беляев В.М. Туркменская музыка. В 2-х томах / Отв. ред.: док. иск. Ш. Гуллыев. Предисл. и comment. Э.Е. Алексеева. – Алматы: Фонд-Сорос-Казахстан, 2003. – 832 с.